



**«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisining birinchi
o'rinbosari v.b.:
Sh.Yusupov**

«25» dekabr 2025 y.
№ 382

**Yuqori bo'g'in rahbar kadrlari va tor mutaxassislik lavozimlariga nomzodlarni
qidirib topish va saralash uchun rekruting kompaniyasini autsorsing asosida jalb
qilish bo'yicha
TEXNIK TOPSHIRIQ**

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar nomi	Ma'lumotlar va talablar mazmuni
1	Tashkilotchi/Buyurtmachi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
2	Bajariladigan ish yoki ko'rsatiladigan xizmat turi	Yuqori bo'g'in rahbar kadrlari va tor mutaxassislik lavozimlariga nomzodlarni qidirib topish va saralash
3	Tanlov savdolarini o'tkazish uchun asos	– O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to'g'risida“ O'RQ-684-sonli Qonuni; – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 276-sonli qarori; – Bank Boshqaruvining 2025-yil 11-dekabrdagi 155/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish” tartibi.
4	Xizmatlarini pudratchining mas'uliyat sohasiga o'tkazishga qo'yiladigan talablar	– So'nggi ikki yil davomida 1000 va undan ortiq xodimga ega bo'lgan kompaniyalar uchun yuqori boshqaruv bo'g'ini rahbarlari va tor mutaxassislik lavozimlariga mos nomzodlarni qidirib topish va tanlash bo'yicha muvaffaqiyatli xizmat ko'rsatish tajribasiga ega bo'lish. – So'nggi ikki yil ichida xodimlar soni 1000 nafardan ortiq bo'lgan kompaniyalar uchun yuqori boshqaruv bo'g'ini rahbarlari va tor mutaxassislik lavozimlariga mos nomzodlarni qidirib topish va tanlash bo'yicha muvaffaqiyatli loyihalar soni, bunda

		ishga qabul qilingan nomzodlarning rezyumelari bo'sh ish o'rni e'lon qilinganidan so'ng dastlabki 30 kalendar kuni ichida taqdim etilgan bo'lishi lozim. – Banklar uchun yuqori boshqaruv bo'g'ini rahbarlari va tor mutaxassislik lavozimlariga mos nomzodlarni qidirib topish va tanlash bo'yicha kamida 3 nafar konsultant mavjud bo'lishi. Agar kadrlar agentligi nomzodning ishga joylashishiga ko'maklashgan bo'lsa, xizmat ko'rsatish tajribasi muvaffaqiyatli hisoblanadi. – Nomzodlarni baholashning Hogan, TalentQ, SHL yoki Tomas kabi metodologiyalaridan biri bo'yicha amaldagi sertifikatlarining mavjudligi. – Rezyumelar uchun shaxsiy ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish. – O'zbekiston Respublikasidagi TOP-5 reytingdagi banklar yoki xorijiy banklar uchun xodimlarni muvaffaqiyatli tanlash tajribasiga ega bo'lgan talabgor kompaniyalarga ustunlik beriladi.
5	Buyurtmasi manzili	100011, Toshkent sh., A. Navoiy ko'ch., 18-A
6	Xizmatning batafsil tarkibi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB buyurtmasi asosida quyidagi talablarga muvofiq yuqori bo'g'in rahbar kadrlari va tor mutaxassislik lavozimlariga nomzodlarni qidirib topish va saralash xizmatini ko'rsatish: a) Lavozim va talablarni chuqur tahlil qilish: - “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tomonidan tasdiqlangan kompetensiyalar modeliga mos kadrlarni qidirib topish va saralash; - kadrlarni qidirib topish va saralashda Markaziy bank tomonidan qo'yilgan talablar va “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning tegishli ichki me'yoriy hujjatlarini e'tiborga olish. b) Maqsadli qidiruv: - ochiq e'lonlardan tashqari, maqsadli headhunting usullaridan foydalanish; - mahalliy va xalqaro kadrlar bozorini qamrab olish. c) Dastlabki suhbat: - belgilangan malaka talablariga mosligi va kompetensiyasi bo'yicha dastlabki suhbat o'tkazish va xulosa tayyorlash; - avvalgi ish joylaridan surishtiruv o'tkazish va xulosalar olish; - reputatsiyasi va ommaviy manbalardagi ma'lumotlari bo'yicha dastlabki tekshiruv o'tkazish va xulosa tayyorlash.

		d) Nomzodlarni taqdim etish: - har bir lavozim bo'yicha kamida 2 nafar nomzod taqdim etish; - har bir nomzod uchun uning portfoliosini taqdim etish. e) Muddat va natija: - har bir nomzod uchun qidirish va saralash muddati – 20-30 kun; - tanlangan nomzodning sinov muddati davomida ish faoliyati monitoringi; - kafolat majburiyati: nomzod 3 oy ichida ishdan ketsa yoki mos kelmasa, bepul qayta qidiruv. f) Axborot xavfsizligi va maxfiylik: - Bank sirlari va strategik ma'lumotlarni to'liq himoya qilish. g) Hisobot va kommunikatsiya: - Bank tomonidan belgilangan mas'ul bo'linma bilan doimiy aloqa; - qidiruv jarayoni bo'yicha bosqichma-bosqich hisobot; - qidiruv strategiyasidagi o'zgarishlarni bank bilan oldindan kelishish. h) Boshqa talablar: - manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik to'g'risida kafolat; - nomzodlarni qidirish va saralash jarayonini muvofiqlashtirish uchun alohida menejer ajratish.
7	To'lovni amalga oshirish	Bajarilgan ishlar va amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotnoma hisob-faktura buyurtmachi va pudrat tashkiloti tomonidan imzolangandan so'ng 5 (besh) ish kuni ichida bajarilgan ishlar va xizmatlar xajmiga qarab amalga oshirib boriladi.
8	Shartnomani amal qilish muddati	Shartnoma summasi to'liq foydalangunga qadar.
9	Bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish	Ijrochi tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar to'liq bajarilganidan so'ng qabul qilish topshirish dalolatnomalari taqdim etish va ikki tomonlama imzolangandan keyin bajarilgan deb hisoblanadi.
10	G'olib tashkilot	Tanlash yakuni natijasiga aniqlanadi.
11	Ishtirokchilarning tashkilotchi bilan bog'lanish uchun aloqa telefonlari	(78) 150-93-39 ichki raqam 850

kelishuvchilar: A.Azimov, A.Asqarov, Kh.Quyjanov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=cT18uE64&id=d7950d76-ea86-4f77-b468-a5b52b7cce0a>